



UDK: 378.14

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651231>

XX ASRNING 40-70 YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSI MAKTAB O‘QITUVCHILARINING IMTIYOZLARDAN FOYDALANISH HOLATI

СОСТОЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛЬГОТ УЧИТЕЛЯМИ ШКОЛ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В 40-70-Е ГОДЫ XX ВЕКА

THE STATUS OF BENEFITS UTILIZATION BY SCHOOL TEACHERS IN THE FERGHANA VALLEY DURING THE 1940s-1970s

Sharipova Nargizaxon Abduqahhorovna

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nar.kokand@gmail.com*

Annotatsiya.

*Ma’lumki ikkinchi jahon urushidan so‘ng ta’lim tizimini ko‘tarish maqsadida
ko‘pgina islohotlar amalga oshirilgan. Shu jumladan ta’limning sifat darajasini
yaxshilash maqsadida pedagog xodimlar uchun ham iqtisodiy imtiyozlar joriy etildi.
Xalq ta’limi tizimida olib borilgan islohotlar, o‘zgarishlar tarixi haqida so‘z yuritilgan.
O‘qituvchilarga yaratilgan imtiyozlar va ulardan foydalanish darajasi, yo‘l qo‘yilgan
kamchiliklar oqibatida kelib chiqqan muammolar haqidagi ma’lumotlar davriy nashr,
arxiv manbalari, og‘zaki suhbat materiallari yordamida yoritishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: Respublika, maorif, maktab, o‘qituvchi, imtiyoz, islohotlar,
turar-joy, ijara.

Аннотация.

Известно, что после Второй мировой войны было проведено множество реформ с целью поднятия системы образования. В том числе введение экономических льгот для педагогических работников с целью повышения уровня качества образования. В данной статье освещается история реформ, изменений в системе государственного образования. С помощью периодического издания, архивных источников, материалов устных бесед автор пыталась открыть проблемы учителей советской времени, уровень использования созданных льготах и информации о проблемах, вызванных допущенными недостатками.

Ключевые слова: Республика, образование, школа, учитель, льготы, реформы, жилье, аренда.

Abstract.

This article describes the reforms and changes in the public education system. The creation and development of the teacher training system in Uzbekistan also consisted of several stages. In the article below, an attempt was made to highlight the reforms that carried out these stages with the help of archival sources, periodicals and scientific literature.

Keywords: Republic, education, school, teacher, benefits, reforms, housing, rent.

O‘qituvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar jamiyatning ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. SSSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 10-fevral, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 25-martda qabul qilgan “Boshlang‘ich va yetti yillik maktablarining o‘qituvchilari uchun yengillik va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi[14, 16] qarorlari asosida o‘qituvchilarga o‘zini mahsulot bilan ta’minlash uchun 0,25 ga dan ko‘p bo‘lmagan tomorqa yer ajratib berish belgilangan. Shu bilan birga ularga bepul yoqilg‘i va yonilg‘i berish va uy-joy bilan ta’minlash masalalari ham qo‘yilgan edi. Lekin imtiyozlar haqidagi qaror qabul qilinishiga qaramay, joylarda ijrosi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. 1948 yilda O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik yaxshi bo‘lmagan. O‘qituvchilarni uy-joy bilan ta’minlash ishlari yaxshi emas edi. Qishga o‘tin-ko‘mir tayyorlash 20 foizga, maktablarni ta’mirlash ishlari 42 foizga bajarilgan xolos.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi Material-texnika ta’minoti tomonidan Maorif sohasiga ajratiladigan qurilish ashyolari ham o‘z vaqtida berilmagan. Urush vaqtida maqsaddan tashqari foydalanish uchun olingan maktab binolarining ko‘pgina qismi qaytarilmagan. Maktablarni ta’mirlash ishlari mahalliy boshqaruva tizimini jalb qilish natijasida maktab binolarining holati yaxshilangan. Respublika bo‘ylab avgust oyining har yakshanba kunlari mehnatkashlarni o‘qituvchilar uylarini, maktab binolarini ta’mirlash ishlarijalb qilish va ularga rahbarlik qilish xalq maorifi bo‘lim mudirlariga, xalq sovetlari ijroiya komitetlari raislari zimmasiga yuklatilgan.[11, 151]

Aholidan yig‘iladigan ixtiyoriy yig‘im pullari iqtisodiy muammolarni hal etish uchun yordam bergen. 1937 yil 17 sentabrdagi “Qishloq aholisidan o‘zaro terim pullarini undirish” to‘g‘risidagi SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining va Xalq Komissarlar Sovetining qaroriga asoslanib yig‘ilgan.[11, 151] Yig‘ilgan pullar madaniy-oqartuv ishlarijalb qilishga, o‘qituvchilar uchun kvartiralar qurib berish, bolalar bog‘chasi qurishda ishlatalgan. [21] Ammo iqtisodiy jihatdan og‘ir holatdagi mehnatkashlardan terim puli yig‘ish aholining noroziligiga sabab bo‘lar edi. Xususan, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “O‘zaro terim o‘tkazish haqida”gi 1465-sonli qarorida 1948 yilga kelib respublikadagi qishloq aholisidan olinadigan o‘zaro terim pullarini yig‘ish ishlari qoniqarli emasligi ta’kidlanadi. Bu esa qurilishi

rejalashtirilgan uylarni o‘z vaqtida topshira olmaslikka sabab bo‘lardi. Masalan Andijon oblast ijroiya komiteti o‘zining 31 yanvar 1949 yildagi qarorida oblast o‘qituvchilari uchun bepul 75 ta uy qurib berilishini belgilagan. Ammo oblastning 4 ta rayonida Chinobod, Balikchi, Xo‘jaobod, Andijon rayonlarida 31 kvarТИали 4 ta uy qurilgan xolos. Oblastdagи 9 ta rayonni tekshirish natijasida o‘qituvchilar bepul turar-joy berish va kommunal xizmat ko‘rsatish masalasi juda achinarli holda ekanligi aniqlangan.[7,19]

O‘qituvchilarga yaratilgan imtiyozlarni bajarilish holati tahlil qilinib shunday ma’lumotlar beriladi: Respublikada 1948 yilda chiqarilgan “O‘qituvchilar uchun imtiyozlar” haqidagi qaror joylarda amalga oshirmayotganligi aytildi. Uylarni ijaraga olishga 20 rubldan pul ajratib berilgan xolos. Vaholanki haqiqiy holatda o‘qituvchilar 50, 100, 150 rubldan to‘lab ijarada turgan. Selovetlar o‘qituvchilarga uy topishda yordam bermaganliklari uchun, o‘qituvchilar o‘zlari uy topishga majbur bo‘lgan.[6, 8]

Xolduvonbek, Baliqchi, Marhamat, Chinobod rayonlarida o‘qituvchilarning komunal muammolari hal qilinmagan. Jumladan, o‘qishlarni bitirib, ishga jo‘natilgan yosh mutaxassislar uy-joy muammolari oqibatida qaytib kelgan, yoki boshqa ishga o‘tib ketgan. Masalan O‘qituvchilar institutini 1949 yilda tugatgan yosh mutaxassis Marhamat rayoniga jo‘natilgan. Lekin u yerda yashash uchun yetarli sharoit yaratib berilmaganligi sababli qaytib kelgan. Bu safar uni Izboskan rayoniga jo‘natilgan. Izboskan rayonida ham xuddi shunday muammoga ro‘para bo‘lgan. Oqibatda o‘qituvchilik kasbini tashlab, boshqa ishga o‘tib ketgan.[8, 9]

1951 yilda Oltinko‘l rayonida o‘qituvchilar qish uchun yoqilg‘i bilan to‘liq ta’minlangan. Komunal xizmatlar uchun ajratilgan 6300 rubl to‘liq ishlatilgan. 29 ta o‘qituvchidan 3 tasi bepul uy bilan ta’minlanganlar. 1950-1951-yilda o‘qituvchilar uchun

3 ta ko‘p xonali uy qurish rejalashtirilgan, ammo qurilish ishlari boshlanmagan. [5, 60]

Andijon viloyati xalq ta’limi bo‘limlari va kasaba uyushmalarining 1952-1953-o‘quv yiliga tayyorgarlik haqidagi hisobotida shunday misralar keltirilgan: 1952-yilda o‘qituvchilarning komunal to‘lovlari uchun 1300 ming rubl miqdorida pul ajratilgan. Ajratilgan summani 90 foizi ishlatilmay qolgan. 1948-1952-yillar davomida o‘qituvchilar uchun 348 ta uy qurib berilishi lozim bo‘lib, amalda esa 36 ta uy qurilgan xolos. Oblast bo‘yicha 1045 nafar o‘qituvchilar xususiy uylarda ijarada turgan. Oyim, Xolduvonbek, Paxtaobod rayonlarida imtiyozlardan foydalanish darajasi achinarli holatda bo‘lib, 1172 nafar qishloq o‘qituvchilari tomorqa yerga bo‘lmagan, 473 nafar o‘qituvchilar komunal xizmatlardan qisman foydalangan xolos. 193 nafar o‘qituvchilar 1952-o‘quv yili davomida komunal xizmatlardan umuman foydalanmagan. Bunga aybdor qilib, xalq ta’limi bo‘limlarining yetarli darajada ishlamaganliklari ko‘rsatiladi. Chunki ular o‘qituvchilar ehtiyojini aniqlab o‘z vaqtida qishloq sovetlari, kasaba uyushmalariga murojaat qilmagan.[9, 21]

To‘g‘ri, turli hududlarda o‘qituvchilar uchun qayg‘urish darajasi har xil bo‘lgan. Masalan, Farg‘ona oblasti Bag‘dod rayonida 1953-yilda o‘qituvchilar uchun maktab yonidan 10 xonalik turar joy qurib berilgan.[16, 1] Bu hududda o‘qituvchilarning komunal to‘lovlari uchun ajratiladigan mablag‘ ham doimiy ravishda berib keltingan.

Farg‘ona oblast Kaganovich (O‘zbekiston) rayon ijroiya komitetining VIII sessiyasi qaroriga asosan rayondagi o‘qituvchilarga uy qurish uchun o‘zaro terim pulidan 53 ming so‘m pul chiqarilgan.[16, 1]

Lekin kadrlar qo‘nimsizligi kabi masalalar ham ta’lim sifatiga va imtiyozlardan foydalanish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Qo‘qon shahar halq maorifi bo‘limi mudiri V.Soy tomonidan 1952-1953-o‘quv yili mobaynida 50 ga yaqin o‘qituvchini bir joydan ikkinchi joyga ishga o‘tkazish haqida buyruq chiqarilgan. Bunga o‘qituvchilar tomonidan yozilgan arizalar sabab bo‘lgan. Andijon oblastida esa bir yil ichida o‘z ishiga sovuqqonlik bilan qaraganligi oqibatida 11 ta rayon xalq maorifi bo‘limi mudiri ishdan ozod qilingan. Shu oblastda so‘ngi uch yil ichida o‘qituvchilar uchun

300 ga yaqin uy qurilishi kerak bo‘lsa, bulardan amalda 41 tasi qurilgan xolos.[17, 1]

Vodiyning Namangan oblastida ham 1954 yilda o‘qituvchilar muammolari bilan qiziqilmagan. Uychi rayonida 17 o‘qituvchi kvartira bilan ta’minlanmagan. Chust rayonida qurilayotgan 4 xonali o‘qituvchilar uyi qurilmay qolib ketgan.[18, 2]

Qishloq o‘qituvchilari uchun o‘zaro ixtiyoriy soliq hisobidan qurilayotgan uylar rejasidagi yildan-yilga bajarilmay qolgan. Respublikada 1950-1953-yillarda qurilishi mo‘jallangan 3000 ta uydan 1040 tasi qurilgan xolos. Shu sababdan SSSR Ministrlar Soveti ana shunday achinarli faktlarni hisobga olib, qishloq maktablarini oldida maktab o‘qituvchilari uchun uy-joylar qurib berish haqida 1954-yil 26 martda qaror qabul qildi. Bu qarorda uy-joylar qurilishi 1955-1956 yillarda ham davom ettirish ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekistonda Ittifoqning mana shu qarori asosida O‘zbekiston Ministrlar Sovetining 1954-yil 5-maydagi qarori qabul qilindi. O‘zaro ixtiyoriy soliq hisobidan quriladigan uy joylar rejasini tasdiqladi. 1954-yilda qishloq o‘qituvchilari uchun har biri 15 ming turadigan ikki xonali 1333 tipovoy turar-joy binosi qurish rejalashtirilgan bo‘lib, buning uchun o‘zaro terim solig‘i hisobidan 20000 so‘m ajratish ko‘zda tutilgan. Birgina 1955-yilda shunday uylarning 800 tasini qurish va unga 12000 ming so‘m sarflash, 1956-yilda 1000 ta turar-joy qurish, bunga esa 15000 ming so‘m sarflash mo‘jallangan. Agar 80 kishilik maktab binosi qurilganda 2 kishilik uy qurish, 160 kishilik maktab qurilganda 4 kishilik uy qurish, 400-440 kishilik maktab qurilganda 8 kishilik kvartira qurish ko‘zda tutilgan.[19, 1]

Davriy nashrlarda tez-tez o‘qituvchilarning turar-joy muammolari bo‘yicha maqolalar chop etilardi. O‘qituvchilarning bu mazmundagi muammolari haqida she’rlar ham yozilgan[20, 2]

XX asrning 40-70 yillarida farg‘ona vodiysi maktab o‘qituvchilarining imtiyozlardan foydalanish holati

Uy-joy bilan bog‘liq muammolar va murojaatlar ko‘pligi sababli ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekiston SSR Moliya Ministrligining o‘qituvchilarni uy-joyga bo‘lgan imtiyozlardan foydalanishi bo‘yicha 1958-yil 21-apreldagi 236-sonli ko‘rsatma xati chiqqan. Unga ko‘ra o‘qituvchilarga komunal xizmatlar uchun bir yilda 360 rubl pul ajratiladi. Lekin, joylardagi pravlenielar tomonidan shartnomalar tuzilmasdan o‘qituvchilarning qo‘llariga naqd pul tarzida berish, yoki yetarli darajada pul ajratmaslik kuzatilgan. 1958-yilda yig‘ilgan 9.260 ming rubl o‘zaro terim pullaridan 1248 ming rubl o‘qituvchilarga uy qurish uchun ishlatilgan xolos. [12, 95]

Arxiv fondlarida davr o‘qituvchilaridan tushgan arizalar saqlanib qolgan. Masalan, o‘qituvchi V.V.Tixonovaning 1959-yilda Namangan oblast Yangiyo‘rg‘on rayoni xalq maorifi bo‘limiga yozgan arizasida 1958-yilda V.I.Lenin nomidagi Qozon Davlat Universitetini tarix-filologiya fakultetini bitirib, Namangan oblast Yangiyo‘rg‘on rayoniga ishga yuborilganligini, u ishlayotgan Birlashgan qishlog‘idagi 14-maktabda yashash uchun sharoit yomonligi sababli boshqa maktabga ishga o‘tkazilishini so‘raydi. Turar-joy kamchiliklari etib quyidagilarni sanaydi: elektr chirog‘i yo‘q, kerosin lampa esa ko‘rish bo‘yicha 2-guruh nogironi bo‘lgan V.Tixonovaning sog‘ligini battar yomonlashtirgan.[10, 59]

Shuningdek, Moskva rayonidagi 63-maktab o‘qituvchilari Muhammedmurova va Strugoviyas o‘zlarining yashash sharoitlaridan shikoyat qilishgan. Chunki xonalar zax, poli yo‘q, ta’mirtalab bo‘lgan. Yana shu maktabning jismoniy tarbiya o‘qituvchisi V.Kim xotini va bolasi bilan 5 metr kv xonada yashagan. Ular eng zarur mahsulotlar uchun

12 km uzoqlikdagi magazinga borib kelganlar.

Andijon oblasti ijroiya komitetining 1960-yil 17-noyabrdagi 688-son qaroriga asosan oblastda 3 yil mobaynida kolxozlar va o‘zaro terim pulidan 391 ta uy qurilish kerak edi. Lekin amalda esa 214 ta qurilgan xolos. Baliqchida 14 ta uy o‘rniga 1 ta, Yangiyo‘rg‘onda 52 ta o‘rniga 2 ta uy qurilgan. 1960-1963-yillar mobaynida 348 nafar o‘qituvchi uy qurish uchun ssuda olgan. Lekin qurilish materiallari topishdagi muammolar tufayli ular uy qura olmagan. Shu yillarda Andijon oblastiga boshqa respublika va oblastlardan 1513 nafar yosh mutaxassislar kelgan. Ammo ularning 135 nafari aynan turar-joy muammosi tufayli ketib qolgan.[1, 148]

Maktabga tutash hududlarda o‘qituvchilar uchun uylar qurish haqidagi qarorga asosan xonalar qurib berilgan. Ammo bu uylar soni ham kamayib bordi. Xususan, oblastdagi 885 ta maktabdan 86 tasida o‘qituvchilar uchun uylar qurilgan xolos.

Andijon oblasti xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i T.Ulaevaning 1961-yil yakuniga bag‘ishlangan hisobotida ham ta‘kidlanadi. [1, 149]

O‘zbekiston SSR Maorif Ministrligining 1960-yil 16-fevraldagi “1959-yilda o‘quv yurtlarini bitirgan mutaxassislardan foydalanish to‘g‘risida”gi A-32-sonli qarorida [4,

60] joylardagi xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan yo‘llanma bilan kelgan o‘qituvchilar turar-joy bilan ta’milanmaganligi oqibatida, ular ish joylarini o‘zgartirishga majbur bo‘layotganliklari aytib o‘tilgan. Masalan, Surxondaryo oblastiga ishga yuborilgan yosh mutaxassislarning 363 nafari, Buxoro oblastida 175 nafar, Xorazm oblastida esa 100 nafar o‘qituvchilar turar-joy muammosi oqibatida ishdan ketib qolgan. Xuddi shunday muammolar Farg‘ona, Samarkand, Toshkent oblastlarida ham kuzatilgan. Buning oqibatida esa joylarda o‘qituvchi yetishmaslik muammosi kelib chiqqan. Bu kabi maktablarda bitta o‘qituvchi bir nechta fandan dars berishga majbur bo‘lgan.[2, 19] Masalan, Farg‘ona oblasti O‘zbekiston rayonidagi 4-maktabning geografiya fani o‘qituvchisi A.Yusupov bir vaqtning o‘zida geografiya, fizkultura, fizika va mehnat fanlaridan dars bergen. Shu sababli oblast xalq ta’limi boshqarmalariga hududlaridagi har bir maktabning tegishli mutaxassis bilan ta’milanganlik darajasini tekshirish buyurilgan. O‘qituvchilarning imtiyozlardan foydalanish darajalarini tekshirish va yo‘llanma bilan ishga jo‘natilgan o‘qituvchini muddati tugamaguncha boshqa ishga o‘tkazmaslik qattiq nazorat qilina boshlandi[13, 51].

Bu davrda ayrim joylarda o‘qituvchilarni uy-joy bilan ta’minalash majburiyatidan qochish maqsadida o‘qishni bitirgan mutaxassislarni ko‘proq o‘zlarini tug‘ilib o‘sgan hududlarga jo‘natish boshlandi[3, 22]. O‘qituvchilarga ajratilgan imtiyozlar doirasida joylardagi maorif boshqarmalari tomonidan o‘qituvchilarni 1950-yildan 1970-yilgacha bepul uy-joy, o‘tin, ko‘mir bilan ta’minalab borilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarni uy-joy bilan ta’minalash, ularni moddiy jihatdan rag‘batlanirib borish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Dastlab, bu imtiyozlar oliy o‘quv yurtlarini bitirib, yo‘llanma asosida olis hududlarga borib ishlayotgan o‘qituvchilarni turar-joy bilan ta’minalash, ish joyini tashlab ketib qolmasligi maqsadida berilgan. Keyinchalik kadrlar qo‘nimsizligiga yo‘l qo‘ymaslik, o‘qituvchilar miqdorini ko‘paytirish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozlar yaratilgan. Lekin yillar o‘tgani sayin qaror ijrosiga sovuqqonlik bilan qarash, o‘qituvchilarni o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yish, ularni qo‘llab-quvvatlamaslik oqibatida ko‘pchilik o‘qituvchilar tanlov qarshisida qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipova N. O‘zbekistonda o‘qituvchilar tayyorlashning sirtqi ta’limi va malaka oshirish institutlari tarixiga nazar. Актуальные проблемы истории Узбекистана. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg‘ona, 2022.
2. Sharipova N. HE GENDER STRUCTURE OF TEACHERS IN SECONDARY SCHOOLS OF UZBEKISTAN (1945-1991)ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – Vol. 10, Issue 4, April 2020.

XX asrning 40-70 yillarida farg‘ona vodiysi maktab o‘qituvchilarining imtiyozlardan foydalanish holati

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi, 94-fond, 7-ro‘yxat, 577-ish, 148-149-varaq.
4. O‘z MA, 2582-fond, 1-ro‘yxat, 1305-ish, 19-varaq.
5. O‘z MA, 2653-fond, 1-ro‘yxat, 2532-ish, 22-varaq.
6. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro‘yxat, 176-ish, 63-varaq.
7. O‘qituchilarga uy qurish uchun 53 ming so‘m chiqarildi. // O‘qituvchilar gazetasi – 1950 yil 24 may. - № 21 (212) – B. 1.
8. A.Tursunov. O‘qituchilar uchun yangi turar joy. // O‘qituchilar gazetasi – 1953-yil 7-oktabr – 42(389) – B. 1.
9. Kadrlar bilan ishlashni yaxshilaylik. // O‘qituvchilar gazetasi 1954-yil 7-yanvar. – №1(911) – B. 1.
10. S.Xalifaeva. O‘zbekiston boshlang‘ich maktab xodimlari kasaba uyushmalarining markaziy komitetining raisi. // O‘qituvchi gazetasi. – 1954-yil 10-iyun – № 25 (935) – B. 1.